

TA’LIM KLASSTERINING INSTITUTSIONAL TUZILISHI VA UNING SAMARALI FAOLIYATI

Nilufar Asamutdinovna Imamova

Xalqaro reytinglar bilan ishlash
bo‘limi boshlig‘i, mustaqil izlanuvchi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
E-mail: nilufar_imamova@tsuos.uz
ORCID - 0000-0001-9723-5348

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim klasterining institutsional tuzilishi, uni tashkil etuvchi subyektlar va ularning o‘zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, klaster ichida ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya samaradorligini oshirishda boshqaruv tizimining o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, institutsional tuzilmaning to‘g‘ri tashkil etilishi ta’lim sifatini, innovatsion rivojlanishni va mintaqaviy iqtisodiyotni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim klasteri, institutsional tuzilma, hamkorlik, integratsiya, samaradorlik, innovatsiya, boshqaruv tizimi.

THE INSTITUTIONAL STRUCTURE AND EFFECTIVE FUNCTIONING OF THE EDUCATIONAL CLUSTER

Nilufar Asamutdinovna Imamova

Head of the International Rankings department, independent researcher
Tashkent State University of Oriental Studies,
E-mail: nilufar_imamova@tsuos.uz
ORCID - 0000-0001-9723-5348

Annotation: This article analyzes the institutional structure of the educational cluster, its constituent entities, and the mechanisms of their interaction. The study highlights the role of the governance system in enhancing the effectiveness of integration among education, science, and production within the cluster. The findings suggest that a well-organized institutional structure plays a crucial role in improving the quality of education, fostering innovation, and strengthening regional economic development.

Keywords: Educational cluster, institutional structure, cooperation, integration, efficiency, innovation, governance system.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ СТРУКТУРА И ЭФФЕКТИВНОЕ ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КЛАСТЕРА

Нилуфар Асамутдиновна Имамова

*Начальник отдела по работе с международными рейтингами,
независимый исследователь*

Ташкентский государственный университет востоковедения,

E-mail: nilufar_imamova@tsuos.uz

ORCID - 0000-0001-9723-5348

Аннотация: В данной статье рассматривается институциональная структура образовательного кластера, состав его участников и механизмы их взаимодействия. Особое внимание уделяется роли системы управления в повышении эффективности интеграции образования, науки и производства внутри кластера. Результаты исследования показывают, что правильно организованная институциональная структура способствует улучшению качества образования, стимулированию инновационного развития и укреплению региональной экономики.

Ключевые слова: Образовательный кластер, институциональная структура, сотрудничество, интеграция, эффективность, инновации, система управления.

KIRISH

Jahon hamjamiyatidagi global jarayonlar, axborot texnologiyalarining intensiv rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalar mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarining soha va tarmoqlarida, xususan, ta’lim sohasida ham mehnat bozori talablariga moslashishga oid innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasi ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish tarmoqlari bilan birgalikdagi integratsion aloqalarini mustahkamlashi orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta’minlashi dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan, talim xizmatlari bozorida ta’lim klasterlari faoliyati ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning samarali shakllaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Ta’lim klasteri — bu markazda klaster yadrosi OTM bo’lgan, o‘zaro bog‘langan turli darajadagi ta’lim muassasalari, ilmiy tadqiqot markazlari, ishlab chiqarish korxonalari hamda boshqa manfaatdor subyektlarning ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh ustunliklarni rivojlantirishga qaratilgan va ularning tizimli hamkorligiga asoslangan faoliyat shaklidir. Bunday tizimda klasterning

institutsional tuzilmasi muhim o‘rin tutadi. Zero, klasterning samarali faoliyati aynan uning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi aniq funksional taqsimot va boshqaruv mexanizmlariga bevosita bog‘liqdir.

Mazkur tadqiqotda ta’lim klasterining institutsional tuzilmasi tahlil qilinadi, uni tashkil etuvchi asosiy subyektlarning roli va ular o‘rtasidagi hamkorlik shakllari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tashkiliy tuzilma tarkibidagi tashkilotlar faoliyatining rivojlanish tendensiyalari, ular faoliyatidagi mavjud muammoli vaziyatlar va rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Ta’lim klasteri ishtirokchilari faoliyatining boshqaruv tizimi va o‘zaro aloqalarning samaradorlikka ta’siri hamda innovatsion rivojlanishdagi o‘rni ilmiy asosda baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ta’lim klasterining institutsional tuzilmasi va uning samarali faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsad qilingan. Shu boisdan, tadqiqotda kompleks yondashuv qo‘llanildi va quyidagi metodlar asosida ilmiy tahlillar amalga oshirildi, xususan, tizimli tahlil usulidan klasterning asosiy elementlarini (turli darajadagi ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar, ishlab chiqarish subyektlari va boshqalar) va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda foydalanildi. Bu usul orqali ta’lim klasterining institutsional arxitekturasini modellashtirildi. Shuningdek, klaster ishtirokchilarining rivojlanish tendensiyalarini, ularning dinamikasini tahlil qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma’lumotlari tahlilidan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ta’lim klasteri tarkibi, tuzilishi, uning asosiy ishtirokchilari hamda ular o‘rtasidagi munosabatlar turli iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan va tadqiq qilingan. Xususan, A.V.Isaev, N.E.Popovichevalar ¹ klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar natijasida sinergetik samaraning yaratilishi haqida, klaster ishtirokchilari va ular o‘rtasidagi munosabatlar haqida esa, I.V. Skvortsova, V.M. Makarovlar tadqiqotlar olib borib, ular “Klaster ishtirokchilari – bu ta’lim muassasalari (kollejlari, universitetlar, malaka oshirish institutlari), tijorat tashkilotlari (ishlab chiqarish va muhandislik kompaniyalari, konsalting va ventur kapital firmalari), universitetning innovatsion infratuzilmasi (ilmiy-ta’lim markazlari, texnoparklar, kichik innovatsion korxonalar), shuningdek, davlat va

¹ A.V.Исаев, Н.Е.Поповичева Формирование и развитие образовательного кластера как механизма регионального развития. Экономика и управление. №2, 2014. 226-231 стр.
www.sharqjurnali.uz

mahalliy hokimiyat organlaridir. Bu holda biznes universitetlarning ta’lim va tadqiqot faoliyati buyurtmachilaridan biri hisoblanadi” deb ta’riflaydilar².

Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy soha, ta’lim xizmatlari bozori holati, uning ishtirokchilarining faoliyati N.G.Muminov³, G.A.Sattikulovalar⁴ tomonidan ham tadqiq qilingan.

Ta’lim klasteri faoliyati hamda universitet klasterini boshqarishda steypolderlar nazariyasiga asoslangan yondashuvning afzalliklari M.V.Kornyakov, T.Yu.Krasikova, A.V.Parshin, A.N. Shevchenkolar tomonidan Sibir geotadqiqotlar maktabi misolida tadqiq qilingan⁵.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida ta’lim klasterining tarkibiy tuzilmasi sanalgan uning ishtirokchilari faoliyati, xususan, ta’lim klasteri yadrosi bo‘lgan OTMlar, turli darajadagi ta’lim tashkilotlari, ya’ni, MTMlar, umumta’lim maktablari, professional ta’lim muassasalari, shuningdek, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat olib borayotgan korxona va tashkilotlar, ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar faoliyati, ularning rivojlanish tendensiyalari jadvallar asosida tahlil qilingan. Yakunda esa, ularning integratsion aloqalari natijasida faoliyati samarali yo‘lga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan ta’lim klasterlarini tashkil etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Birinchi tahlil ta’lim klasteri yadrosi, ta’lim klasterining asosiy tashabbuskori bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan OTMlar tahlilidan boshlanadi.

1-jadval

Oliy ta’lim muassasalari soni soni, birlikda (hududlr kesimida)⁶

Hududlar	2014	2016	2018	2020	2022	2024
O‘zbekiston Respublikasi	68	70	98	127	191	222
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2	2	6	9	10	12
Andijon viloyati	4	4	4	6	10	10
Buxoro viloyati	3	3	5	5	11	13
Jizzax viloyati	2	2	2	3	5	5
Qashqadaryo viloyati	2	2	3	6	9	11
Navoiy viloyati	2	2	2	2	4	4

² I.V. Skvortsova, V.M. Makarov. Innovative-educational cluster as an effective mechanism of regional innovation system development. St. Petersburg State Polytechnical University Journal. Economics. 6–2(185) 2013. 173-178 p.

³ Н.Г.Мунинов Таълим хизматларининг ижтимоий таркибини ўзгариб боришининг дастлабки натижалари. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ. 2023, 5 (126). 18-36 бетлар.

⁴ Г.А.Саттикулова. Инсон капиталини ривожлантириш Ўзбекистонда давлат ижтимоий сиёсатининг муҳим йўналиши сифатида. “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №2, 2024 yil. 130-143 бетлар.

⁵ Корняков М.В., Красикова Т.Ю., Паршин А.В., Шевченко А.Н. Как определить эффективность работы научно-образовательного кластера вуза: кейс ИРНТУ – Институт «Сибирская школа геонаук» // ЭКО. 2024. № 4. С. 222–242. DOI: 10.30680/ECO0131–7652–2024–4–222–242.

⁶O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz

Namangan viloyati	3	3	3	3	6	8
Samarqand viloyati	6	6	8	12	15	14
Surxondaryo viloyati	1	1	7	7	7	7
Sirdaryo viloyati	1	1	1	2	3	3
Toshkent viloyati	1	1	5	8	10	16
Farg‘ona viloyati	3	3	7	10	11	13
Xorazm viloyati	1	1	3	3	8	8
Toshkent shahri	37	39	42	51	82	98

Mazkur jadval bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida OTMlar faoliyatining umumiy tendensiyasi sifatida 2014-yilda 68 ta bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 222 taga yetganini ko‘rish mumkin. OTMlar soni 10 yilda qariyb 3,2 barobar o‘sgan. 2017-yildan keyin OTMlar o‘sishi tezlashgan (72 tadan 2018-yilda 98 taga, 2019-yilda 119 taga). 2020–2024 yillarda o‘shish sur‘ati yanada kuchayib, yiliga o‘rtacha 20–30 ta yangi OTMlar qo‘shilgan. Hududlar kesimida, Toshkent shahri yetakchi, 2014-yilda 37 ta, 2024-yilda esa, 98 tani tashkil etgan. Bu holat 2014-yilda umumiy respublika ko‘rsatkichining 54 foizini tashkil qilgan, 2024-yilda esa, 44 foizni tashkil etgan. Bu holat boshqa hududlarda ham rivojlanish tezlashganini anglatadi. Toshkent viloyatida 2014-yilda yagona OTM bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda natija 16 tani tashkil etdi, respublikadagi tez o‘svuchi hududlardan biri sifatida o‘shish 16 barobarni tashkil etdi. Barqaror o‘shish esa, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida kuzatiladi, o‘shish mos ravishda 6 tadan 14 taga va 3 tadan 13 taga yetgan. Aksincha pasayish kuzatilgan hududlar, xususan, Surxondaryo viloyati 1 tadan 7 taga yetgan, Lekin 2022–2024 yillarda o‘shish to‘xtagan, hatto biroz pasayish ham bor. Namangan viloyati 3 tadan 8 taga ko‘paygan, 2023-yilda 9 taga chiqqan, keyin 2024-yilda biroz kamaygan. Navoiy viloyati - 2014–2019 yillarda o‘shish mavud emas, 2020-yildan 4 taga chiqdi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 2-12 (6 barobar o‘shish). O‘shish aynan, 2018-yildan keyin kuzatilgan.

Umumiy tendensiya sifatida O‘zbekistonda 2017-yildan keyin rivojlanish jarayoni tezlashganini, bu islohotlar va yangi dasturlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinli keltirish mumkin. O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari soni so‘nggi 10 yilda keskin oshgan. Bu jarayon ta’lim tizimini kengaytirish, hududlarda oliy ta’limni rivojlantirish, shuningdek, xususiy va xorijiy OTM filiallari ochilishi bilan bog‘liq. Natijada, oliy ta’limga kirish imkoniyati oshgan va ta’limning hududiy muvozanati yaxshilanishi kuzatilgan.

Tahlilning keyingi bosqichida turli darajadagi ta’lim tashkilotlari faoliyati tahlili amalga oshiriladi.

2-jadval

Umumta’lim muassasalari soni, birlikda (hududlr kesimida)⁷

	2014	2016	2018	2020	2022	2024
O‘zbekiston Respublikasi	9733	9719	9774	10181	10522	10943
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	708	705	708	733	746	761
Andijon viloyati	744	742	746	779	806	820
Buxoro viloyati	534	537	539	551	577	588
Jizzax viloyati	545	543	544	558	576	589
Qashqadaryo viloyati	1122	1125	1122	1155	1220	1272
Navoiy viloyati	355	354	358	368	374	384
Namangan viloyati	688	687	695	726	742	767
Samarqand viloyati	1230	1221	1225	1271	1310	1335
Surxondaryo viloyati	858	860	869	934	953	995
Sirdaryo viloyati	300	299	300	316	327	341
Toshkent viloyati	877	871	872	894	907	930
Farg‘ona viloyati	920	918	926	974	1026	1080
Xorazm viloyati	529	530	526	561	573	593
Toshkent shahri	323	327	344	361	385	488

Mazkur jadval 2014–2024 yillarda umumta’lim muassasalari sonining hududlar kesimida dinamikasini ko‘rsatadi. Umumiy respublika darajasida 2014-yilda 9733 ta umumta’lim maktabi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu raqam 10943 taga yetgan, ya’ni 10 yilda 1210 ta yangi maktab tashkil etilgan. Bu jarayon aholining demografik o‘sishi, urbanizatsiya va ta’limga bo‘lgan talab ortgani bilan izohlanishi mumkin. Hududlar kesimida yirik o‘shish Toshkent shahri, Farg‘ona, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida, nisbatan pastroq o‘shish Navoiy, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida kuzatilgan. Samarqand — maktablar soni ko‘p bo‘lgan hudud (1335 ta), undan keyin Qashqadaryo (1272 ta) va Farg‘ona (1080 ta) viloyatlari o‘rin olgan. Demografik omil sifatida aholi soni ko‘p va urbanizatsiya tez kechayotgan hududlarda (Toshkent shahri, Farg‘on va Surxondaryo viloyatlari,) maktablar soni keskin oshgan.

Keyingi bosqichda o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari tahlili amalga oshiriladi.

3-jadval

O‘rta maxsus va professional ta’limi muassasalari soni, birlikda (jami)⁸

	2014	2016	2018	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	1557	1566	1537	818	827	812	819	845

Ushu jadvalda O‘zbekiston Respublikasida 2014–2024 yillarda mobaynida o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari sonidagi o‘zgarishlar keltirilgan.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz

Umumiy tendensiyaga ko‘ra, 2014-yilda 1557 ta professional ta’lim muassasasi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 845 taga tushgan. Ya’ni 10 yilda 712 ta (taxminan 46 foizga) qisqarish sodir bo‘lgan. Tizimdagi o‘zgarishlar sababi sifatida 2009–2017 yillarda akademik litsey va kollejlarda umumiy majburiy ta’lim tizimining qismi bo‘lganini, shu sababli muassasalar soni yuqoriligini keltirish mumkin. 2017–2019 yillarda esa, ta’lim tizimida islohotlar qilinib, litsey va ko‘plab kollejlarda tugatilganini, ayrimlari umumta’lim maktablariga qaytarilganini keltirish mumkin. 2020-yildan boshlab kasb-hunar maktablari, texnikumlar va kollejlardan iborat yangi uch pog‘onali professional ta’lim tizimi joriy qilindi. Hozirda jarayon sifatini oshirish va bozor talablari asosida mutaxassislar tayyorlashga qaratilib kelinmoqda.

Keyingi bosqichda ta’lim klasterining birinchi, dastlabki bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati tahlil qilinadi.

4-jadval

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni, birlikda (hududlr kesimida)⁹

Hududlar	2014	2016	2018	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	5150	5138	6381	7753	7868	8412	35973
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	320	317	403	501	523	546	590
Andijon viloyati	460	456	548	703	718	765	779
Buxoro viloyati	343	341	414	515	566	593	621
Jizzax viloyati	170	173	186	265	282	307	331
Qashqadaryo viloyati	332	329	434	509	524	557	651
Navoiy viloyati	129	129	175	278	285	305	308
Namangan viloyati	478	472	586	669	653	689	742
Samarqand viloyati	564	568	880	848	874	921	969
Surxondaryo viloyati	294	294	328	546	520	594	642
Sirdaryo viloyati	151	152	179	217	218	236	247
Toshkent viloyati	450	440	517	688	607	668	748
Farg‘ona viloyati	686	670	804	959	990	1065	1089
Xorazm viloyati	256	251	323	402	433	451	471
Toshkent shahri	517	546	604	653	675	715	927

Mazkur jadval tahlilida 2014–2023 yillar mobaynida maktabgacha ta’lim muassasalari (MTM) sonidagi dinamika ko‘rsatilgan. Bu ma’lumotlar ta’lim tizimining eng pastki bosqichida qanday kengayishlar bo‘lganini ochib beradi.

Umumiy ko‘rsatkichlarda respublika bo‘yicha 2014-yilda 5150 ta MTM mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 7 barobar o‘sib 35973 taga yetgan. Tahliliy xulosalar sifatida katta o‘sishni Toshkent shahri, Samarqand, Farg‘ona va Surxondaryo (348 tadan 410 tagacha) viloyatlarida bo‘lganini keltirish

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz
www.sharqjurnali.uz

mumkin. O‘shish nisbatan past bo‘lgan hududlar bu Sirdaryo va Navoiy viloyatlaridir.

O‘zgarishlar asosi sifatida MTMlar sonini ko‘paytirish bo‘yicha davlat siyosati, xususiyl sektorning kirishi, aholi sonining ortishi natijasida ko‘payishini, xususan, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent shahri MTMlar soni boshqalarga qaraganda ancha ko‘proq oshganligini keltirish mumkin. MTMlar sonining 7 barobarga ko‘payishi boshlang‘ich ta’limga kirayotgan bolalar sonini oshiradi, keyinchalik umumta’lim maktablaridagi o‘quvchilar soniga bevosita ta’sir qiladi, ta’lim tizimining uzluksizligini mustahkamlaydi va OTM bitiruvchilar sonining ortishiga zamin yaratadi.

Keyingi bosqichda ta’lim klasterining faol ishtirokchilaridan biri bo‘lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar faoliyati tahlilini ko‘rish mumkin.

5-jadval

Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar soni, birlikda (jami)¹⁰

	2014	2016	2018	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	259	313	456	195	179	181	250	200

Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlarning 2014–2024 yillardagi tahlili bo‘yicha 2014–2016 yillarda 259 dan 313 taga o‘shish kuzatilgan, lekin 2018-yilda sezilarli sakrash — 456 ta tashkilotga yetgan.

Mazkur holat ilmiy muassasalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va innovatsion fondlarning samarali faoliyati natijasi bo‘lishi mumkin. 2020 yildan keskin tushish — 195 ta tashkilotga. Bu optimallashtirish, birlashtirish va samarasiz ilmiy muassasalarni yopish siyosati bilan izohlanishi mumkin. 2020–2022 yillarda deyarli barqaror (179–181), 2023-yilda biroz o‘shish (250), 2024-yilda yana pasayish (200). Ilmiy-tadqiqot sektorida barqarorlik bo‘lmaganini – ko‘payish va qisqarish bo‘lganini kuzatish mumkin.

Innovatsion ekotizimning asosiy drayveri bo‘lgan ilmiy muassasalar sonining kamayishi ta’lim sifati va ilm-fan integratsiyasiga salbiyl ta’sir qilishi mumkin. Ko‘plab OTM va texnoparklar ochilgan bo‘lsa-da, ularning ilmiy-tadqiqot salohiyati hududlar bo‘yicha teng taqsimlanmaganligini ham kuzatish mumkin.

Keyingi bosqichda esa, ta’lim klasterini xarakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning tahlili ko‘rib chiqiladi.

6-jadval

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda (hududlr kesimida)¹¹

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz
www.sharqjurnali.uz

	2014	2016	2018	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	241201	257758	285531	398133	475197	528929	592371	485024
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11306	12552	13742	18404	21968	23721	26692	25928
Andijon viloyati	23991	26048	24644	30740	36726	40474	44658	29717
Buxoro viloyati	11468	13828	15625	23459	28233	31160	33686	31203
Jizzax viloyati	9414	10076	12008	17190	20993	22714	25847	19923
Qashqadaryo viloyati	19868	18557	18471	25259	30180	36168	41612	33064
Navoiy viloyati	8062	8533	9469	17067	20133	22711	25179	21880
Namangan viloyati	15953	17695	19952	25909	30882	33422	36914	27634
Samarqand viloyati	17403	18553	21061	31354	38946	46667	54163	43477
Surxondaryo viloyati	14036	12207	13719	19220	25367	28291	31427	24657
Sirdaryo viloyati	7952	8300	9392	13169	15425	15920	17259	13432
Toshkent viloyati	22823	24403	26919	38523	46173	50296	55472	45295
Farg‘ona viloyati	21173	23083	25571	35379	42241	46622	52746	42574
Xorazm viloyati	12502	12899	13674	18614	21979	25160	28904	27089
Toshkent shahri	45250	51024	61284	83846	95951	105603	117812	99151

Mazkur jadval bo‘yicha 2014–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar sonining o‘shish dinamikasi, hududlar bo‘yicha tafovutlari tahlilini amalga oshirish mumkin. Umumiy dinamik tahlil bo‘yicha O‘zbekiston miqyosida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar 2014-yildagi 241 mingdan 2023-yilda 592 mingga oshgan, taxminan 2,5 barobar o‘shish kuzatilgan, lekin 2024-yilda 485 mingga (18 foizga) keskin tushgan. Bu 2024-yilda ro‘yxatdan chiqarilgan yoki konsolidatsiya qilingan korxonalar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Yirik o‘shish sur‘atlari Toshkent shahri, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent, Buxoro va Namangan viloyatlarida qayd etilgan. Nisbatan past sur‘atli o‘shishlar Surxondaryo, Sirdaryo va Qashqadaryo viloyatlarida kuzatilgan.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

O‘zbekiston ta’lim tizimi va ta’lim klasterlari istiqboli (2014–2024) bo‘yicha tahlil va strategik tavsiyalar hamda xulosalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. Umumiy tendensiyalar sifatida MTMLar bo‘yicha 2018-yildan boshlab maktabgacha ta’limga katta e’tibor qaratildi. 2023-yilda 8,4 mingdan birdaniga 35,9 mingtaga ko‘tarilishi davlat-xususiy sheriklik va xususiy bog‘chalar soni oshgani bilan bog‘liq. Umumta’lim maktablari bo‘yicha 2014–2024 yillarda 9733 tadan 10943 tagacha o‘tdi, ammo o‘shish asosan Toshkent shahri, Samarqand, Farg‘ona viloyatlarida kuzatilgan. Professional ta’lim 2014-yildan 2020-yilgacha

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz
www.sharqjurnali.uz

keskin qisqargan (1557 tadan 818 taga), bu kollej-litsey tizimi optimallashtirilishi bilan bog‘liq, keyingi yillarda esa, biroz tiklanish yuz bergan. OTMLar soni bo‘yicha 2018-yildan boshlab universitetlar soni ikki barobar ko‘paydi, xususan, hududlarda filiallar ochilishi, nodavlat OTMLar paydo bo‘lishi ta’lim qamrovini kengaytirdi.

Faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni bo‘yicha 2014–2023 yillarda 2,5 martadan ortiq o‘shish kuzatildi. 2024-yilda biroz pasayish namoyon bo‘ldi, ammo Toshkent shahri, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari yetakchiligini saqlab qoldi.

Hududlar kesimidagi imkoniyatlar sifatida ta’lim klasterlarini yo‘lga qo‘yish mexanizmi bo‘yicha eng ko‘p OTMLar, korxona va tashkilotlar hamda turli darajadagi ta’lim muassasalariga ega bo‘lgan Toshkent shahri uchun mazkur hududda axborot texnologiyalariga asoslangan, innovatsion ta’lim markazlari, startap inkubatorlarini, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishni maqsad qilgan xususiy sektor tashabbuslari bilan tashkil etiluvchi “Innovatsion ekotizim” ta’lim klasterlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Samarqand, Farg‘ona, Andijon – korxonalarining yirik soni va OTMLar mavjudligini inobatga olib “Universitet – yadro” ta’lim klasteri faoliyatini yo‘lga qo‘yish va bu orqali sanoat hamda texnoparklarni kuchaytirish, texnik kollejlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.

Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida professional ta’lim o‘quv yurtlarini kengaytirish va neft-gaz, qishloq xo‘jaligi, logistika sohalarini yanada takomillashtirish maqsadida davlat va xususiy sektor tashabbuslari asosida “Sanoatlashtirishga asoslangan” ta’lim klasterlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Navoiy, Buxoro viloyatlarida esa, sanoat va konchilik korxonalarini ko‘pligi bois shaxta, geologiya, kimyo, energetika sohalarini rivojlantirish maqsadida “Davlat tomonidan boshqariluvchi” ta’lim klasterini yo‘lga qo‘yish talab etiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Sirdaryo viloyatlarida ta’lim va ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida bu hududlarda agroklastlar va kasb-hunar maktablarini kengaytirish, migratsiyani kamaytirish uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish mexanizmlarini ishga solish maqsadga muvofiq.

Ta’lim klasterlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, hududlar imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish hamda ta’lim sifatini oshirish uchun strategik tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Kadrlar tayyorlashni hududiy talabga bog‘lash – korxonalar ko‘p hududlarda texnik va muhandislik mutaxassisliklarini oshirish;

2. MTM va maktablar tarmog‘ini sifatli kengaytirish – sonni oshirish bilan birga pedagog kadrlar malakasini ham tizimli ravishda ko‘tarish;
3. Professional ta’limni sifat bosqichiga olib chiqish – ayniqsa sanoat zonalarida kollejlari va qisqa muddatli kurslar ochish;
4. OTMlar va biznes hamkorligi – amaliyot dasturlari va klaster ichida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish;
5. Innovatsion moliyalashtirish – davlat xarajatlarining bir qismini innovatsion iqtisodiyot uchun, grantlar, texnoparklar va startaplar uchun yo‘naltirish.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, 2014–2024 yillar mobaynida ta’lim tizimi miqdoriy jihatdan sezilarli o‘sdi, endigi navbat esa, ta’lim klasterlari orqali sifat va xalqarolashuvni yo‘lga qo‘yish va takomillashtirishdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun kuchlarni birlashtirish, ta’lim klasterlari tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, hududiy klaster yondashuvi orqali ta’lim tizimini mahalliy iqtisodiyot bilan uyg‘unlashtirish, natijada esa, ta’lim klasterlarini iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga xizmat qilishini ta’minlashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-309-son “Neft va gaz sohasida ta’lim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6100256>
2. А.В.Исаев, Н.Е.Поповичева Формирование и развитие образовательного кластера как механизма регионального развития. Экономика и управление. №2, 2014. 226-231 стр.
3. Корняков М.В., Красикова Т.Ю., Паршин А.В., Шевченко А.Н. Как определить эффективность работы научно-образовательного кластера вуза: кейс ИРНТУ – Институт «Сибирская школа геонаук» // ЭКО. 2024. № 4. С. 222–242. DOI: 10.30680/ECO0131–7652–2024–4–222–242.
4. I.V. Skvortsova, V.M. Makarov. Innovative-educational cluster as an effective mechanism of regional innovation system development. St. Petersburg State Polytechnical University Journal. Economics. 6–2(185) 2013. 173-178 p.
5. Н.Г.Муминов Таълим хизматларининг ижтимоий таркибини ўзгариб боришининг дастлабки натижалари. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ. 2023, 5 (126). 18-36 бетлар.

6. Г.А.Саттикулова. Инсон капиталини ривожлантириш Ўзбекистонда давлат ижтимоий сиёсатининг муҳим йўналиши сифатида. “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №2, 2024 yil. 130-143 бетлар.
7. Botir, Usmonov and Khabibjon, Kushiev (2020) "Educational cluster - foundation of the national economy and regional innovation system," Chemistry and chemical engineering: Vol. 18: No. 2, 1-6 p.
8. Delgado, M. (2020). The Co-location of Innovation and Production in Clusters. Industry and Innovation, 27(8), 842-870.
<https://doi.org/10.1080/13662716.2019.1709419>.
9. Ю.Н.Лапыгин, Тулинова Д.В. Условия формирования кластера. Вестник университета. 2020; (7): 114-119
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz